**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI KENGASHINING 9-SON MAJLIS BAYONNOMASIDAN KO‘CHIRMA**

*Toshkent shahri, rektorat* *2026-yil 3-iyul*

**O‘zbekiston Milliy universiteti talabalar turar joyi (TTJ)da yashaydigan talabalarga imtiyozlar berish hamda TTJ uchun to‘lovlarni amalga oshirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida.**

***Eshitildi:*** birinchi prorektor **T.N.Xojiyev.**

Universitetga qarashli TTJlariga 2026/2027 o‘quv yilida joylashgan talabalarning TTJda yashaganlik uchun shartnomada ko‘rsatilgan to‘lovlarni amalga oshirishda quyidagi toifaga kiruvchi talabalarga imtiyozlar qo‘llash va to‘lovdan ozod qilishni belgilangan tartibda tasdiqlangan “TTJ to‘g‘risidagi Nizom”ga hamda amaldagi me’yoriy hujjatlarga rioya qilgan holda Universitet Kengashi tomonidan tasdiqlab berish taklifi kiritilmoqda.

**I. “TTJ to‘g‘risidagi Nizom”ning 4-bob 27-bandiga asosan,**

***1. TTJda yashovchi va 100 % to‘lovdan ozod etiladigan talabalar toifasi:***

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari;

Chin yetim talabalar;

Ko‘z kasalligi bo‘yicha 1-2-guruh va umumiy kasalliklar bo‘yicha 1-guruh nogironligi bo‘lgan talabalar.

**2. *TTJda yashovchi va 25 % to‘lovdan ozod etiladigan talabalar toifasi*:**

Umumiy kasalliklar bo‘yicha 2-guruh nogironligi bo‘lgan talabalar.

**3.** Universitetning Respublika fuqarosi bo‘lgan boshqa toifadagi barcha talabalari to‘liq miqdordagi to‘lovlarni amalga oshiradi.

**4.** 2026/2027 o‘quv yilida TTJlarga oylik to‘lov **350 000 (uch yuz ellik ming)** so‘m miqdorida belgilanishi tavsiya etiladi.

**5.** Universitetning Davlat talabalar turar joylariga shartnoma asosida yashovchi xorijiy mamlakatlar fuqarolari bo‘lgan talabalar uchun oylik to‘lov **60$ (oltmish) AQSH dollar** (O‘zMU hisob varag‘iga kelib tushgan kundagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo‘yicha konvertatsiya qilinadi), Universitetning ijaraga olgan xususiy talabalar turar joylariga xorijiy mamlakatlar fuqarolari bo‘lgan talabalar uchun oylik to‘lov **80$ (sakson) AQSH dollar** (O‘zMU hisob varag‘iga kelib tushgan kundagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo‘yicha konvertatsiya qilinadi) miqdorda belgilanishi tavsiya etiladi.

**6.** Universitetga qarashli Davlat xususiy sherikchilik (DXSH) asosidagi TTJda yashovchi Respublika fuqarosi bo‘lgan talabalarga to‘liq miqdordagi to‘lovlarni amalga oshirishi, TTJning oylik to‘lovi **480 000 (to‘rt yuz sakson ming)** so‘m miqdorida belgilanishi tavsiya etiladi.

**II.** Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-avgustdagi 376-son “**Oliy ta’lim muassasalari talabalarini turar joy bilan ta’minlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi** Qarori bilan tasdiqlangan “Davlat oliy ta’lim muassasalarining talabalarini talabalar turar joyiga joylashtirish bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma’muriy reglamenti”ning 5-bandining **A** kichik bandiga asosan, talabalarni TTJga imtiyoz bilan joylashtirish uchun tegishli tasdiqlovchi ma’lumotlar asosida:

*“Mehribonlik uylari” tarbiyalanuvchilari, yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan talabalar; Ijtimoiy reestr, “Temir daftar” va “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”ga kiritilgan ijtimoiy himoyaga muhtoj oila (ayol) farzandlari; I va II guruh*

*nogironligi bo'lgan talabalar; bir oiladan bakalavriat bosqichi kunduzgi ta'lim shaklida ikki yoki undan ortiq to'lov-shartnoma asosida o'qiyotgan oilalar farzandlari; Ijtimoiy reestrga kiritilgan oilalar farzandlari* joylashtirilishi belgilangan.

Shuningdek, ushbu reglamentning 5-bandining **B** kichik bandida xalqaro va tegishli mas'ul vazirlik tomonidan o'tkaziladigan respublika miqyosidagi fan olimpiadalarida g'olib bo'lgan talabalar; mas'ul vazirlik tomonidan o'tkaziladigan "Zakovat" intellektual o'yinlari respublika bosqichi g'oliblari; "Yil talabasi" ko'rik-tanlovi respublika bosqichi g'oliblari; "Talabalar teatr studiyalari" tanlovining respublika bosqichi g'oliblari; TTJ talabalar kengashi raisi, qavat sardori bo'lgan talabalar oliy ta'lim tashkilotlari rahbarlari buyrug'i asosida TTJga imtiyoz asosida joylashtirilishi belgilangan.

2023-yildan buyon fakultet dekanlari tavsiyalari asosida talabalarni TTJlarga joylashtirishda yordam berish uchun volontyorlar guruhlari faoliyat olib borib, ular TTJga imtiyoz bilan joylashtirilgan. Shuningdek, bugungi kunda ***ko'z*** bo'yicha 1 guruh nogironligi bo'lgan talabalar bilan birga yashovchilar o'tgan yillar davomida imtiyoz bilan TTJga joylashtirilgan. Ko'z bo'yicha 1 guruh nogironligi bo'lgan talabalarga yordam ko'rsatuvchi talabalarni ham volontyorlar sifatida belgilash taklif etilmoqda. Shu sababli volontyorlar uchun ***Nizom*** ishlab chiqildi va mazkur nizom tasdiqlash uchun olib chiqilmoqda (*Nizom ilova qilinadi*).

**III**. Universitetning 2023-yil 6-martdagi 01-59-son "O'zMU xodimlarining lavozim vazifalari yo'riqnomasini tasdiqlash xususida"gi buyrug'i bilan Universitetda faoliyat olib boruvchi barcha xodimlarning lavozim vazifalari tasdiqlangan. Ushbu lavozim vazifalari yo'riqnomasining 179-bandida TTJ bino mudirining lavozim vazifalari belgilangan.

Bugungi kunda HEMIS axborot tizimida TTJ bino mudiri tartibi kiritilganligi hisobiga TTJ bino mudirining lavozim vazifalariga quyidagi "**TTJda yashovchi talabalarning TTJ uchun qarzdorligi to'g'risidagi har oylik ma'lumotlarini Talabalarni ijara xonadonlari bilan ta'minlash bo'limi hamda Registrator ofisga taqdim qilib borish"** qo'shimcha band kiritish taklif qilinmoqda.

**IV**. Universitetning 2023-yil 6-martdagi 01-59-son "O'zMU xodimlarining lavozim vazifalari yo'riqnomasini tasdiqlash xususida"gi buyrug'i bilan Universitetda faoliyat olib boruvchi barcha xodimlarning lavozim vazifalari tasdiqlangan.

Ushbu lavozim vazifalari yo'riqnomasining 39-bandida tarbiyachi pedagoglarning lavozim vazifalari belgilangan. Amaliyot jarayonida tarbiyachi pedagoglar TTJ talabalar bilan ko'proq ishlashini hisobga olib tarbiyachi pedagogning lavozim vazifasiga **"to'lovlarni amalga oshirishga qiynalayotgan talabalarning ijtimoiy ahvolini o'rganish, oilaviy ahvoli nochor bo'lgan talabalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash yuzasidan tavsiyalar berish, TTJda yashovchi talabalarning hisobini yuritish, yashamayotgan talabalar bo'yicha shartnomalarni bekor qilish yuzasidan arizalarni elektron tizim orqali yuborilishini ta'minlash, talabalar tomonidan amalga oshirilgan har oylik to'lovlarning ma'lumotlar bazasini shakllantirishga ko'maklashish, shuningdek shakllantirilgan ma'lumotlarni Talabalarni ijara xonadonlari bilan ta'minlash bo'limi va Registrator ofisga taqdim qilib borish"** vazifasini qo'shimcha sifatida kiritish taklif qilinmoqda.

**V**. Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-avgustdagi 376-son **"Oliy ta'lim muassasalari talabalarini turar joy bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi** Qarori bilan tasdiqlangan "Davlat oliy ta'lim muassasalarining talabalarini talabalar turar joyiga joylashtirish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamenti"ning 8-bandida TTJga kurslar kesimida talabalarni necha foiz qamrab olish belgilangan. Ammo ushbu reglament DXSH asosida foydalanilayotgan

TTJlarga tadbiq etilmaydi. Davlat TTJlarida yashash uchun arizalar my.gov.uz platformasi orqali yuboriladi. DXSH asosida foydalanilayotgan TTJ uchun arizalar esa kontrakt.edu.uz platformasi orqali yuboriladi. 1-kursga qabul qilingan talabalarning ma'lumotlari ularni darsga qo'yish to'g'risidagi farmoyish yoki buyruq chiqmasa kontrakt.edu.uz platmormasiga kiritilmasligi hisobiga 1-kursga qabul qilingan talabalar 2026-yil 15-sentyabrlargacha DXSH asosida qurilgan TTJda yashash uchun ariza berisha olmaydi. Shuni xisobga olgan holda 1-kursga qabul qilingan talabalar uchun Universitetga qarashli 7-son DXSH asosida foydalanishga topshirilgan TTJdan 2026/2027 o'quv yilida 1-kurs talabalari uchun har bir fakultetga ajratilgan joyning ***15 foiz***ini ajratish taklif qilinmoqda.

Kun tartibidagi masalaga oid Kengash

**QARORI QILADI:**

**1.** Universitet birinchi prorektori T.N.Xojiyevning **"O'zbekiston Milliy universiteti talabalar turar joyi (TTJ)da yashaydigan talabalarga imtiyozlar berish hamda TTJ uchun to'lovlarni amalga oshirish tizimini takomillashtirish to'g'risida"**gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

**2.** Universitetda belgilangan tartibda tasdiqlangan "TTJ to'g'risidagi Nizom"ning 4-bob 27-bandiga asosan TTJda yashovchi talabalarga 2026/2027 o'quv yili davomida tegishli tartibda imtiyozlar joriy etilsin;

boshqa toifadagi barcha Respublika fuqarosi bo'lgan talabalarga to'liq miqdordagi to'lovlarni amalga oshirishi belgilansin;

2026/2027 o'quv yilida TTJda oylik to'lov **350 000 (uch yuz ellik ming)** so'm miqdorida belgilansin;

Universitetning Davlat talabalar turar joylariga shartnoma asosida yashovchi xorijiy mamlakatlar fuqarolari bo'lgan talabalar uchun oylik to'lov **60$ (oltmish) AQSH dollar** (O'zMU hisob varag'iga kelib tushgan kundagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha konvertatsiya qilinadi), Universitetning ijaraga olgan xususiy talabalar turar joylariga xorijiy mamlakatlar fuqarolari bo'lgan talabalar uchun oylik to'lov **80$ (sakson) AQSH dollar** (O'zMU hisob raqamiga kelib tushgan kundagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank kursi bo'yicha konvertatsiya qilnadi) miqdorida belgilansin.

**3.** Universitetda "Volontyorlik faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi Nizom" tasdiqlansin va TTJda joylashtirishga imtiyoz bilan tavsiya etilayotgan volontyor talabalar ro'yhati fakultet kengashi qarori bilan tasdiqlanishi belgilansin.

**4.** Universitetning 2023-yil 6-martdagi 01-59-son "O'zMU xodimlarining lavozim vazifalari yo'riqnomasini tasdiqlash xususida"gi buyrug'i bilan tasdiqlangan Universitet xodimlarining lavozim vazifalari yo'riqnomasining 179-bandiga TTJ **bino mudir**ining lavozim vazifalari yo'riqnomasiga **"TTJda yashovchi talabalarning TTJ uchun qarzdorligi to'g'risidagi har oylik ma'lumotlarini Talabalarni ijara xonadonlari bilan ta'minlash bo'limi hamda Registrator ofisga taqdim qilib borish"** tartibi lavozim vazifasi tarkibiga kiritilsin.

Shuningdek, TTJ **bino mudirlari:**

TTJ bo'yicha talabalar kesimida hisoblangan to'lovlarni undirilishi va oy boshlangandan so'ng ikki hafta mobaynida qarzdorliklar saqlanib qolayotgan talabalrni TTJdan chiqarish bo'yicha choralar ko'rish uchun shaxsan mas'ul etib belgilansin;

har oyning 25-sanasiga qadar buxgalteriya bo'limida TTJ bo'yicha to'lovlarga mas'ul hisobchi hisoblangan va to'langan summalar bo'yicha hisobotlarni Talabalarni ijara xonadonlari bilan ta'minlash bo'limi va TTJ direksiyasiga taqdim etib borsin;

belgilangan tartibda tashkil etilgan ***ishchi guruh*** har o‘quv yilining yarim yillik yakuni uchun TTJ bo‘yicha qorzdorliklari va boshqa holatlariga oid hisobotlarini Universitet Kengashiga kiritib borish amaliyoti joriy etilsin.

**5**. Universitetning 2023-yil 6-martdagi 01-59-son “O‘zMU xodimlarining lavozim vazifalari yo‘riqnomasini tasdiqlash xususida”gi buyrug‘i bilan tasdiqlangan Universitet xodimlarining lavozim vazifalari yo‘riqnomasining 39-bandiga tarbiyachi pedagoglarning TTJda talabalar bilan ko‘proq ishlashini hisobga olib ularning lavozim vazifasiga “*to‘lovlarni amalga oshirishga qiynalayotgan talabalarning ijtimoiy ahvolini o‘rganish, oilaviy ahvoli nochor bo‘lgan talabalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash yuzasidan tavsiyalar berish, TTJda yashovchi talabalarning hisobini yuritish, yashamayotgan talabalar bo‘yicha shartnomalarni bekor qilish yuzasidan arizalarni elektron tizim orqali yuborilishini ta’minlash, talabalar tomonidan amalga oshirilgan har oylik to‘lovlarning ma’lumotlar bazasini shakllantirishga ko‘maklashish, shuningdek shakllantirilgan ma’lumotlarni Talabalarni ijara xonadonlari bilan ta’minlash bo‘limi va Registrator ofisga taqdim qilib borish*” tartibi kiritilsin.

**6**. 2026/2027 o‘quv yilida 1-kursga qabul qilingan talabalar uchun Universitetning 7-son DXSH asosida foydalanishga topshirilgan TTJdan har bir fakultetga 15 foizdan joy ajratilsin.

7. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash prorektorlar T.Xojiyev, Sh.Toshmatov va V.U.Yodgarovlar zimmasiga yuklatilsin.

**Kengash kotibi** **K.Baymirov**